



O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI IJROSI TAHLILI

dots. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi,
Ma'mun universiteti,
Alfraganus universiteti
ORCID: 0000-0002-0802-8599
shhamdamov@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga erishish uchun qayta tiklanadigan energiya va raqamli transformatsiyaning dolzarbligi ortib borayotganini ta'kidlaydi. Tadqiqot 2014-yildan 2023-yilgacha bo'lgan milliy ma'lumotlarni baholovchi Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) asosida indeks tahlilini qo'llaydi. Topilmalar mas'uliyatli iste'mol va iqlim choralari bo'yicha sezilarli yutuqlarni ko'rsatadi, shu bilan birga, qashshoqlikni qisqartirish va sanoat innovatsiyalarida muammolar saqlanib qolmoqda. Barqarorlikni oshirish uchun O'zbekiston qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishni kengaytirishi, chiqindilarni boshqarishni yaxshilashi va raqamli islohotlarni rag'batlantirishi kerak.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, raqamli transformatsiya, BRM, O'zbekiston iqtisodiyoti.

АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

доц. Хамдамов Шах-Жахон Рахмат угли

*Научно-исследовательский центр «Научные основы и проблемы
развития экономики Узбекистана» при Ташкентском
государственном экономическом университете,
Университет Мамун,
Университет Альфраганус*

Аннотация. В этом исследовании анализируются показатели устойчивого развития Узбекистана в рамках зеленой экономики. Исследование подчеркивает растущую значимость возобновляемой энергии и цифровой трансформации для достижения сбалансированного социально-экономического роста. В исследовании используется индексный анализ на основе Целей устойчивого развития (ЦУР), оценивающий национальные данные с 2014 по 2023 год. Результаты показывают значительный прогресс в ответственном потреблении и действиях по борьбе с изменением климата, в то время как проблемы в сокращении бедности и промышленных инновациях сохраняются. Для повышения устойчивости Узбекистан должен расширить использование возобновляемой энергии, улучшить управление отходами и способствовать цифровым реформам.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, возобновляемая энергетика, цифровая трансформация, ЦУР, экономика Узбекистана.

ANALYSIS OF THE IMPLEMENTATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS IN UZBEKISTAN

assoc. prof. **Khamdamov Shoh-Jakhon**

Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics, Mamun University, Alfraganus University

Abstract. *This study analyzes Uzbekistan's sustainable development indicators within the framework of the green economy. The research highlights the increasing relevance of renewable energy and digital transformation for achieving balanced socio-economic growth. The study employs index analysis based on the Sustainable Development Goals (SDGs), evaluating national data from 2014 to 2023. Findings reveal significant progress in responsible consumption and climate action, while challenges remain in poverty reduction and industrial innovation. To enhance sustainability, Uzbekistan must expand renewable energy use, improve waste management, and foster digital reforms.*

Keywords: *green economy, sustainable development, renewable energy, digital transformation, SDGs, economy of Uzbekistan.*

Kirish.

Jahonning yetakchi ilmiy va oliy ta'lim tashkilotlarida barqaror rivojlanish muammolarini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda yetakchi davlatlar yashil texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya va barqaror qishloq xo'jaligi sohasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda, bu esa ifloslanish darajasini pasaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga yordam bermoqda. Biroq, barqaror rivojlanish omillarining o'zaro bir-biriga ta'siri, xususan tashkilotlarda boshqaruv xodimlari tarkibidagi gender, madaniy, va tajriba xilma-xilligi yashil o'sishga ta'siri keng o'rganilmagan. Shuningdek, iqlim o'zgarishining ta'siri, aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun inklyuziv dasturlarning kamligi, yashil energiyaning qimmatligi kabi haligacha hal etilmagan muammolar mavjud. Bu masalalar, mamlakatlar barqaror rivojlanishning yangi modellarini, global ekologik tahdidlarni, tengsizlik va qashshoqlik kabi ijtimoiy muammolarni hisobga oluvchi yangi mexanizmlar, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik modellarini ishlab ishlab chiqish zarurligini taqozo etmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili ekologik, texnologik va mintaqaviy strategiyalarni birlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni ochib beradi. O'zbekiston qayta tiklanadigan energiyaga o'tish va energiya samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni atrof-muhit degradatsiyasidan ajratish bo'yicha faol ish olib bormoqda. Mamlakat iqtisodiy barqarorlikni oshirish uchun raqamli transformatsiya va mintaqaviy islohotlardan ham foydalanmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlar uchun juda muhim bo'lgan sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilmani rivojlantirishga qaratish bilan to'ldiriladi. Quyidagi bo'limlarda O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasining ushbu asosiy jihatlarini batafsil bayon etilgan.

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarining holati va dinamikasi tahlil qilinadi. Jahon iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillarining ahamiyati ortib borayotgan bir vaqtda, O'zbekiston ham ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida muvozanatga erishishni maqsad qilgan. Tadqiqotning dolzarbligi qayta tiklanuvchi energiya, raqamli transformatsiya va mintaqaviy siyosatning barqaror rivojlanishga ta'sirini aniqlash bilan belgilanadi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonning iqtisodiy transformatsiyasi va barqaror rivojlanishi uchun sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilmalarga sarmoya kiritishni davom ettirish zarurdir (Ozodovich, 2024; Shodiyev, 2024). Bu sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro hamkorlik va normativ takomillashtirishlar zarur (Khamdamov, 2024).

Mintaqaviy islohotlar ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarni bartaraf etish va iqtisodiy diversifikatsiyani rag'batlantirish orqali barqaror rivojlanishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi (Shoh-Jakhon, 2023). Moslashtirilgan mintaqaviy siyosat muvozanatli milliy rivojlanish va umumiy farovonlikni oshirish uchun zarurdir (Xamdamov, 2022).

O'zbekiston quyosh, shamol va gidroelektr energiyasi kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga e'tibor qaratmoqda, qazilma yoqilg'iga ta'sirini kamaytirish va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatmoqda (Mamadiyev va boshq., 2023; Khamdamov, 2024). Muhim ekologik siyosat va barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarini amalga oshirish iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan muvozanatlash uchun juda muhimdir (Tukhtabaev va boshq., 2023; Khamdamov, 2024).

Raqamli transformatsiya ish o'rinlarini yaratish, davlat xizmatlari samaradorligi va atrof-muhit barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy o'sish va barqarorlikning muhim drayveri sifatida aniqlanadi (Saidmakhmudovich va boshq., 2023; Mamatkulov, 2023). Raqamlashtirish salohiyatini to'liq amalga oshirish uchun resurs cheklovlari va tartibga soluvchi muhit kabi muammolarni hal qilish kerak (Salimov, Kholikova va boshq., 2023; Kurbonov va boshq., 2023).

Yashil iqtisodiyotga siljish, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya va ekologik ekologik amaliyotlarga investitsiyalar barqaror iqtisodiy o'sishning katalizatori sifatida ko'rilmogda (Makhmudov, Khamdamov va boshq., 2023; Khamdamov & Akramova, 2021). Ta'lim, innovatsiyalar va inklyuziv o'sish strategiyalari yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tish uchun juda muhimdir (Supiyevna, 2025; Nusratovich, 2024).

O'zbekiston barqaror rivojlanish yo'lida sezilarli qadamlar ko'rsatayotgan bo'lsa-da, ushbu tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun keng qamrovli siyosat asoslari va xalqaro hamkorlik zarurligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uzoq muddatli barqarorlik maqsadlariga erishish uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda barqaror rivojlanishning 17 maqsadiga (BRM) mos indekslar va subindekslar asosida O'zbekistonning 2014-2023 yillardagi ko'rsatkichlari baholangan. Ma'lumotlar statistik tahlil va grafik tasvirlar yordamida tahlil qilinib, dinamik o'zgarishlar aniqlangan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatlarning barqaror rivojlanishini hisoblashda barqaror rivojlanishning 17 ta maqsadlariga mos indekslar va subindekslar tanlab olingan. Har bir BRM (barqaror rivojlanish maqsadlari) bo'yicha max 0-100 ball baholangan (1-rasmga qarang).

2014-2023 yillarda O'zbekistonda ko'plab BRM buyicha barqarorlik ballari o'rtacha 56-80 ballni tashkil etgan. Ammo 2014 yilda BRM 1 (Kambag'allikka barham berish) va BRM9 (sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilma) ijrosi mamlakatimizda o'rtachadan ancha past 23 va 28 ballni tashkil etib 2023 yilga kelib BRM 9 ijrosi 71 ballga ijobiy natijaga chiqqan balsa BRM 1 ijrosi 45 ballgacha kutarilib hali ham normadan salbiy natijani qayd etmoqdamiz (2-rasmga qarang).


O'zbekistonda 2014-2023 yillarda BRM ijrosi buyicha eng ijobiy holatni BRM 12 (mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) va BRM13 (iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish) tashkil etib ular 91-93 ball atrofida ijobiy baholangan. Buni mas'uliyatli istemol buyicha xalqimizning urf-odatlarini, odobi bilan izohlasak, mamlakatda olib borilayotgan yashil

energiyani ragʻbatlantirish, Orol dengiziga nihol ekishni kengaytirish bilan bogʻliq olib borilgan hukumat siyosati natijasida BRM 13 ijrosi nisbatan ijobiy baholangan.



1- rasm. Oʻzbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlari koʻrsatkichlari dinamikasi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.




2- rasm. Oʻzbekistonda ijobiy va salbiy BRM trendi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O'zbekiston aholisi yil sayin ortib bormoqda, bu esa maishiy va sanoat chiqindilarining hajmini oshirmoqda. Aholi sonining o'sishi bilan iste'mol miqdori ham oshadi, bu esa atmosferaga chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar ishlab chiqarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu gipotezaga ko'ra keltirilgan omillar ifloslanish hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi, bu esa ushbu omillar asosida atrof-muhitni yaxshilash strategiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Yashil shaharlar indeksida umumiy O'zbekistonni tahlil qiladigan bo'lsak, 2015-2019 yillarda mo'tadillikni ko'rishimiz mumkin, bunda 100 balldan 40 ball atrofida bahollangan. 2019-2020 yilga kelib yashil yashil iqtisodiyot holati 40 ball dan 58 ballga ortgan. Bu ijobiy o'zgarishni Kovid-19 pandemiya tadbirlarining ta'siri bilan izohlaymiz. Sababi ushbu davrda transport harakatining kamayishi va masofaviy ishlashga o'tilganligi sababli korxonalarda energiya sarfi kamaygani CO₂ chiqarishni kamaytirdi va havo sifatini yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin (3-rasmga qarang).



3- rasm. O'zbekistonda yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari

Manba: GCI Indeks asosida muallif tomonidan tuzildi.

Rasmga ko'ra 2021-2023 yillarda yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarida pasayishni ko'rishimiz mumkin, buni Kovid-19 pandemiya cheklovlari bekor qilinganidan so'ng energetika sanoati va boshqa sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmi jadal sur'atlarda o'sganligi, aholi sonining o'sishi va qurilish hajmining o'sganligi bilan izohlanadi.

Chiqindilarni ajratish bo'yicha Yaponiya tizimi joriy etish taklif qilgan. Chiqindi yig'ish konteynerlarini kengaytirish zarurligi asoslangan. Xususan dushanba organik chiqindilar, seshanba plastmassalar, chorshanba qog'oz va kartonlar, payshanba metall chiqindilar, juma shisha chiqindilarni yig'ish va tashish mexanizmini joriy qilish asoslangan.

Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini soliqlardan ozod qilish yoki subsidiyalar bilan qo'llab-quvvatlash, "Zero Waste" (nol chiqindi) tashabbusi ilgari surish, Yirik kompaniyalardan chiqindilarni boshqarish bo'yicha javobgarlik talab qilish, Bir martalik plastik mahsulotlardan foydalanishni cheklash, Plastik paketlar, idishlar va boshqa qadoqlash materiallaridan foydalanishni kamaytirish bo'yicha qat'iy qonunlar qabul qilish, Alternativ sifatida qayta ishlanadigan va ekologik toza qadoqlash materiallarini joriy qilishni rag'batlantirish takliflari ishlab chiqilgan.

Quyosh, shamol va bioenergiya kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengroq joriy qilish, Elektr energiyasini ishlab chiqarishda uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun ekologik toza texnologiyalardan foydalanish, O'zbekistonda 2050-yilgacha elektr energiyani

ishlab chiqarishda uglerod-neytral sektorni yaratish imkoniyatlarini o'rgarish bo'yicha "yo'l xaritasi" loyihasi uchun takliflar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonning BRM ko'rsatkichlari so'nggi yillarda ijobiy o'sish sur'atiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, BRM12 (mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) va BRM13 (iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish) sohalarida sezilarli natijalarga erishilgan. Biroq, BRM1 (qashshoqlikka barham berish) va BRM9 (sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilma) yo'nalishlarida hali muammolar saqlanib qolmoqda.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston iqtisodiyotida yashil rivojlanishni ta'minlash uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini joriy etish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish zarur. Tadqiqot asosida davlat tomonidan beriladigan subsidiya va imtiyozlarni iqtisodiy samaradorlik tamoyillariga asoslangan holda tartibga solish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan:

tadqiqot natijasida iqtisodiyotning real sektorini rag'batlantirishga yo'naltirilgan barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hamda byudjetdan moliyalashtiriladigan subsidiya va taqdim etiladigan imtiyozlarning iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqib tartibga solish taklifi asoslangan;

iqtisodiyotning real sektorini rag'batlantirishga yo'naltirilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari uskunalari, suv nasos stansiyalari hamda ko'chma generatorlarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun byudjetdan moliyalashtiriladigan subsidiya va taqdim etiladigan imtiyozlarning iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqib tartibga solish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarurati asoslanib umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalangan holda umumiy tarmoqqa elektr energiyasini realizatsiya qilishdan olingan foyda solig'idan ozod qilinishi asoslandi.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Jakhon, K. S. (2021). Analysis of factors of intensive economic growth in Uzbekistan. *JournalNX*, 7(12), 310-315.

Kasimov, A., Tukhtabaev, J., Bondarskaya, O., Bondarskaya, T., Ochilov, A., Mamatov, M., ... & Usmanov, C. (2023, December). Organizational and Economic Modeling of the System of Interregional Industrial Cooperation as a Control Object. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 333-343).

Khamdamov, S. J. (2024). The impact of central bank policies and digitalization on GDP growth in Uzbekistan. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(6), 7-10.

Khamdamov, S. J. R., Usmanov, A. S., Sayfullayev, S. N., Xamitova, M. S., & Adkhamjonov, S. B. (2024). The Influence of the Main Rate of the Central Bank on GDP Growth in Uzbekistan and the Transition to International Financial Reporting. In *Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS* (Vol. 33, pp. 107-112). Emerald Publishing Limited.

Khamdamov, S. J., & Akramova, D. (2021). Aspects of the vegetative disorders occurrence in the Parkinson's disease and Vascular Parkinsonism. *Journal of the Neurological Sciences*, 429.

Khamdamov, S. J., & Usmanov, A. (2022). New methodological recommendations for economic growth. *Архив научных исследований*, 2(1).

Khamdamov, S. J., Kakhramonova, U., & Usmanov, A. (2024). Green economy as a driver of sustainable economic growth in Uzbekistan. *Страховой рынок Узбекистана*, 1(8), 64-66.

Khamdamov, S. J. (2024). Energy Sector Development and its Contribution to Uzbekistan's Economic Expansion. *American Journal of Corporate Management*, 1(2), 1-6.

Khamdamov, S. J. (2024). *Impact of Exchange Rate Fluctuations on Uzbekistan's Export-Led Growth*. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(8), 431-436.

Khamdamov, S. J. (2024). *The Effect of Labor Market Reforms on Economic Growth in Uzbekistan*. *American Journal of Corporate Management*, 1(2), 7-12.

Khamdamov, S. J. (2024). *The Role of Foreign Direct Investment (FDI) in Uzbekistan's Economic Growth*. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(8), 437-443.

Kurbonov, K., Makhmudov, S., Mamadiyrov, Z., Khamdamov, S. J., Karlibaeva, R., Samadov, A., & Djalilov, F. (2023, December). *The Impact of Digital Technologies on Economic Growth in the Example of Central Asian and European Countries*. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 403-409).

Makhmudov, S., Khamdamov, S. J., Karlibaeva, R., Mamadiyrov, Z., Haydarov, O. R., Khujamurodov, A., & Imomov, K. (2023, December). *The Impact of Digital Technologies on the Labor Market of Uzbekistan*. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 260-267).

Mamadiyrov, Z. T., Sultanova, N. I., Khamdamov, S. J. R., & Makhmudov, S. B. (2024). *Analyzing the Impact of International Financial Reporting Standards (IFRS) on Microfinance Services*. In *Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS: Part A* (pp. 39-47). Emerald Publishing Limited.

Mamadiyrov, Z., Sultanova, N., Makhmudov, S., Khamdamov, S. J., Mirpulatova, L., & Jumayev, A. (2023, December). *The Impact of Digitalization on Microfinance Services in Uzbekistan*. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 453-463).

Mamatkulov, B., Khamdamov, S. J., Togayniyazov, S., Tukhtabaev, J., Quldoshev, Q., & Qarshiev, D. (2023, December). *Predicting Future Living Standards in Uzbekistan: Utilizing Econometric Analysis*. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 425-431).

Muftaydinova, S.K., Chuprynin, V.D., Fayzullin, L.Z., Buralkina, N.A., Muminova, Z.A., Asaturova, A.V. & Abdullayev, S.I. (2022, December). *Expression of the tyrosine kinase receptor (EPHA1) in the eutopic and ectopic endometrium of patients with deep infiltrative endometriosis use of modern digital technologies*. In *Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems* (pp. 416-421).

Nusratovich, S. X. (2024). *Rivojlanayotgan O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda iqtisodiy ko'rsatkichlarning ahamiyati*. *SHOKH LIBRARY*, 144-160.

Ozodovich, A. F. (2024). *Hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishning uslubiy jihatlari*. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(04), 47-63.

Saidmakhmudovich, U. A., Khamdamov, S. J., & Eshonovich, S. A. (2023). *Problems of ensuring sustainable development goals in Uzbekistan*. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 16, 106-110.

Salimov, B., Kholikova, R., Khamdamov, S. J., Turaev, A., Tukhtabaev, J., Nosirova, N., & Akhmedova, D. (2023, December). *Strategies for Integrating Digitalization in Leveraging Regional Economic and Scientific Expertise for the Innovative Growth of Small and Medium Enterprises*. In *Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems* (pp. 483-490).

Shodiyev, K. (2024). *Innovatsion iqtisodiyotda turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta'minlash istiqbollarini bashoratlash*. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(02), 123-135.

Shoh-Jakhon, K. (2023). *Theoretical and Methodological Aspects of Intensive Economic Growth in Ensuring Sustainable Economic Development*. *Social and Economic Studies within the Framework of Emerging Global Developments Volume 3*, 283.

Supiyevna, B. M. (2025). O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror o'sishini ta'minlovchi omillar. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(5), 142-151.

Tukhtabaev, J. S., Turaev, H. Y., Kasimov, A. A., Bondarskaya, T. A., Ochilov, A. O., Bondarskaya, O. V., ... & Irisbayeva, S. D. (2023, December). Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. In *International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking* (pp. 177-195). Cham: Springer Nature Switzerland.

Yusupov, S., Boymuradov, S., Bobamuratova, D., Shukhratova, M., Marupov, I., Akramova, D. T. & Muradova, D. A. (2022, December). Diagnostic aspects of zygomatico-orbital complex fractures with the use of modern digital technologies. In *Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems* (pp. 399-403).

Хамдамов, Ш. Ж. (2022). Барқарор иқтисодий ривожланишнинг назарий жиҳатлари. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(Maxsus_son), 19-24.

Хамдамов, Ш. Ж. Р. (2020). Оценка уровня интенсивного роста Республики Узбекистан. ББК 72 И120, 113.

Хамдамов, Ш. Ж. (2021). Ўзбекистонда интенсив иқтисодий ўсиш омилларининг ўзаро салмоғини аниқлаш. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (5), 84-88.